

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.FM/T.09.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

ISMOILOV XURSANDBEK FARXODOVICH

**DOIRAVIY KONUSSIMON QOBIQNING DEFORMATSIYALANUVCHI
MUHIT BILAN O‘ZARO NOSTATSIONAR TA’SIRLASHUVI**

01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on physical-mathematical sciences**

Ismoilov Xursandbek Farxodovich

Doiraviy konussimon qobiqning deformatsiyalanuvchi muhit bilan o‘zaro
nostatsionar ta’sirlashuvi..... 3

Исмоилов Хурсандбек Фарходович

Нестационарное взаимодействие круглых конических оболочек с
деформируемой средой..... 21

Ismoilov Khursandbek Farkhodovich

Nonstationary interaction of circular conical shell with a deformable medium.....41

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.FM/T.09.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

ISMOILOV XURSANDBEK FARXODOVICH

**DOIRAVIY KONUSSIMON QOBIQNING DEFORMATSIYALANUVCHI
MUHIT BILAN O‘ZARO NOSTATSIONAR TA’SIRLASHUVI**

01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/FM1408 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xasanov Askar Zabiyeovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Mardonov Batirjan
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Yuldashev Sharafitdin Sayfitdinovich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.FM/T.09.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «17» aprel_soat_13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 239-11-40, faks: (+99866) 239-11-40, 239-12-47, e-mail: devonxona@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_107-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 239-17-25.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil « _____ » _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil « _____ » _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).



R.I.Xalmuradov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

O'.A.Nishonov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
fizika-matematika fanlari
bo'yicha falsafa doktori, (PhD)

K.Ismayilov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari,
texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda muhandislik konstruksiyalarida ya'ni mashinasozlikda, aviatsiyada, kemasozlikda va boshqa sohalarda qo'llanilayotgan yangidan-yangi materiallar muhandislik oldiga dolzarb mexanik masalalarni yechishni taqozo qilmoqda. Shunday masalalar qatoriga konstruksiyalarning nostatsionar tebranish jarayonlarini modellashtirish, mavjudlarini mukammallashtirish ularning turli xil xususiyatlarini hisobga olgan holda haqiqiy holatga yaqin tebranishlar haqidagi masalalar kiradi. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda, masalan Yaponiya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Germaniya kabi davlatlarda, qurilish hamda geologik sohalarda qo'llaniladigan turli konstruksiyalarning kuchlangan-deformatsiyalangan holatlarini hisoblashga, ularning mustahkamligini oshirishga, mavjud hisoblash modellarini yanada takomillashtirishga, yangi hisoblash modellarini ishlab chiqishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Dunyoda, bugungi kunda, qurilish va geologik sohalarda qo'llaniladigan turli xil muhitlarda joylashgan konstruktiv elementlarning, jumladan doiraviy silindrik va konussimon qobiqlarning tashqi yukka chidamliligini ta'minlashga hamda ularning tebranish jarayonlarini sonli tahlil qilishga bag'ishlangan ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shuning uchun, zamonaviy fan, texnika va qurilishning turli sohalari tomonidan, konstruksiya elementlarining chidamliligini ta'minlash borasidagi muhandislik talablari chegarasida, ushbu elementlarni hisoblash modellarini, tashqi muhitlarning turli fizik-mexanik xossalarini, hamda, ichki va tashqi kuchlar ta'sirini e'tiborga olib yaratish vazifasi va konstruktiv elementlarning hisob usullarini takomillashtirish hamda tamoman yangi matematik modellarini yaratish bo'yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Tadqiqotchilarning asosiy maqsadi mustahkam konstruksiyalar yaratishga yo'naltirilgan. Shu bilan birga konstruktiv elementlarning turli noan'anviy xususiyatlarini hisobga olgan holda nostatsionar tebranishlar jarayonlarining matematik modellarini yaratishga, ularning kuchlangan-deformatsiyalangan holatini tadqiq qilishga xususan deformatsiyalanuvchi muhitda joylashgan doiraviy konussimon qobiqlarning nostatsionar ta'sirlashuvini sonli tahlil qilishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda xalq xo'jaligining turli sohasida impulsli, seysmik va davriy dinamik yuklar ta'siri ostidagi muhandislik qurilmalari deformatsiyasini hisoblash matematik modelini yaratish va amaliyotga keng tadbiiq etish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarda Yangi O'zbekiston Respublikasini taraqqiyot strategiyasida, jumladan, "Yirik ishlab chiqarish korxonalarida quvvatlarni modernizatsiya va rekonstruksiya qilish orqali energiyani tejash va samaradorlikni oshirish bo'yicha texnik siyosatni ishlab chiqish¹..." bo'yicha muhim vazifalar belgib berilgan. Qo'yilgan ushbu masalalarni yechishda, xususan, muhandislik konstruksiyalarini

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil PF-60-sonli farmoni O'zbekiston Respublikasini taraqqiyot strategiyasi "Yirik ishlab chiqarish korxonalarida quvvatlarni modernizatsiya va rekonstruksiya qilish orqali energiyani tejash va samaradorlikni oshirish bo'yicha texnik siyosatni ishlab chiqish¹..."

chidamliligini oshirish, ta'sirlashuvchi muhitlarni va moddalarning boshqa xossalari hisobga olish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 30-maydagi PF-144-son farmoni, 2023-yil 16-maydagi PQ-158 sonli "O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" dagi farmoni seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasini doimiy takomillashtirib borish doirasida mavjud va qurilayotgan bino-inshootlarning seysmik mustahkamligini ta'minlash²..., 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" qarorlari hamda mazkur faoliyat sohasiga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning IV. "Matematika, mexanika va informatika" yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

Bugungi kunda gruntlar mexanikasining mexanikasining dolzarb masalalaridan biri burg'ulash qurilmalari elementlari mustahkamligini aniqlash masalasidir. Bunday masalalar qatoriga geologik ishlarni amalga oshiruvchi burg'ulash mashinasining mustahkamligini aniqlash masalalarini ham kiritish mumkin. Ulardagi shtanganing ustivorligi va xavfsizligini ta'minlash ularning tebranish jarayonlari xarakteristikalarini tadqiq etish bugungi zamon talabidir. Bunda shtanga sifatida doiraviy kesik konussimon qobiqlardan keng foydalaniladi. Doiraviy kesik konussimon qobiqlar ustida ko'plab tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Deformatsiyalanuvchi muhit bilan ta'sirlashadigan doiraviy kesik konussimon qobiqlar ko'rinishidagi muhandislik qurilmalari elementlarining muhit bilan o'zaro nostatsionar ta'siri muammolari juda ko'p tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan va ko'plab tadqiqot ishlarida umumlashtirilgan. Bu yerda doiraviy konussimon qobiqning nostatsionar tebranishlari haqidagi muammolar yetarlicha o'rganilgan. Ammo deformatsiyalanuvchi muhitda joylashgan doiraviy kesik konussimon qobiqning buralma tebranishlari masalalari juda kam sonli ishlarda yoritilgan. Deformatsiyalanuvchi muhitda joylashgan doiraviy kesik konussimon qobiqlarning buralma tebranishlarining ayrim xususiy hollari uchun ba'zi natijalar A.H.Sofiyev (2014), va I.G.Filippov va K.Kudoynazarov (1998), V.F.Meish, O.G.Galagan va V.M.Melnik (2014), A.S.Volmir (1979), A.E.Babayev (1984) tadqiqot ishlarida bayon etilgan. Umuman olganda, konussimon qobiqlarning buralma tebranishlarini o'rganish P.Z.Lugovyi, Yu.V.Skosarenkolarning [7] ishida yangicha yo'nalishga burildi deb aytish mumkin. Aynan shu ishda qobiqlar nazariyasi va Timoshenkoning

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-maydagi PQ-158 sonli farmoni "O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" dagi farmoni seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasini doimiy takomillashtirib borish doirasida mavjud va qurilayotgan bino-inshootlarning seysmik mustahkamligini ta'minlash²...,

gipotezalaridan foydalangan holda, tebranishlar xususiyatini va kuchlangan-deformatsiyalangan holatini aniqlash usuli, dinamik yuklanishlar ostida o‘zaro ta’sir qiluvchi o‘qqa simmetrik qatlamli qovurg‘ali ortotropik konussimon qobiqlarning tebranish xususiyatlari ishlab chiqilgan. Gamilton prinsipidan foydalangan holda, o‘rta sirtidagi nuqtalarning ko‘chishi uchun tuzilgan qobiq tebranish tenglamalari olingan. Qobiq harakat tenglamalari sistemasini yechish uchun fazoviy koordinatalarda trigonometrik qatorlar va vaqt bo‘yicha aniq chekli-ayirmalar sxemasi qo‘llanilgan.

Xiaohan Bao, Yiling Liularning ishida qo‘zg‘almas tayanchli konussimon qobiqning tebranish xususiyatlari tahlili keltirilgan. Birinchidan, Donnell qobig‘ nazariyasiga asoslangan sonli hisoblashning yangi modeli yaratilgan va MATLAB dasturi yordamida sonli usulda hisoblab chiqilgan. Keyinchalik ANSYS Workbench modellashtirish platformasidan foydalangan holda konussimon qobiqning chekli-elementlar modeli qurilgan. Tegishli sonli modelning yaqinlashuvini topish va tekshirish uchun belgilangan cheklovlar bilan konussimon qobiq modelining tahlili o‘tkazilgan.

Murakkab chegaraviy shartlarda kesik konussimon qobiqlarning erkin tebranishlari tahlili Edward Tertel, P.Kuryło, W.Papaczlarning ishida keltirilgan. Avval, Reysnerning qobiq nazariyasi yordamida konussimon qobiqlarning geometrik tenglamasi olingan. Elastik chegaraga ega modal parametrlarning (modal bikrlilik, modal massa, xususiy chastota va model shakli) harakat tenglamalari Fure qatori ko‘rinishida olingan. Konussimon qobiqlarning modellari shakli va xususiy chastotalari harakat tenglamalarini yechish orqali olish mumkin. Bundan tashqari, mos ravishda sonli modellashtirish va chekli elementlar usuli natijalarini taqqoslash orqali ushbu metodologiyaning haqqoniyligi tasdiqlangan.

Yetarlicha aniqlikda bunday masalalarni yechishga imkon beruvchi tashqi ta’sirlashuvchi muhit hususiyatlarini hisobga olgan holda aniqlashtirilgan qobiq modelini kiritish muammosi dolzarb hisoblanadi. Ushbu dissertatsiya ishida deformatsiyalanuvchi muhitda joylashgan doiraviy kesik konussimon qobiqning buralma tebranishlar xususiyatini va kuchlangan-deformatsiyalangan holatini aniqlash uchun ishlab chiqilgan model sanab o‘tilgan muammolar qatorida turadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti muhandislik fizikasi instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Deformatsiyalanuvchi muhit bilan o‘zaro ta’sir qiluvchi diskret-uzluksiz tizimlarning ustuvorligi va tebranishlarini o‘rganish” (2010-2025-yillar) mavzudagi tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi deformatsiyalanuvchi muhitda joylashgan doiraviy elastik konussimon qobiqlarning nostatsionar buralma tebranishlari matematik modelini yaratish va ularning ixtiyoriy kesimi nuqtalaridagi ko‘chish va kuchlanishlarni aniqlash algoritmini ishlab chiqishdan hamda olingan tenglamalar asosida deformatsiyalanuvchi muhitda joylashgan doiraviy elastik konussimon qobiqlarning nostatsionar buralma tebranishlari haqidagi amaliy masalalarni tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

doiraviy konussimon qobiqning deformatsiyalanuvchi muhit bilan o‘zaro nostatsionar ta’sirlashuvi, turli xildagi dinamik ta’sirlar ostidagi konussimon qobiqning nostatsionar buralma tebranishlarining yangi matematik modeli ishlab chiqish;

tashqi muhitning zichligini va turli xildagi elastik parametrlarining ta’sirini hisobga olib doiraviy konussimon qobiqning buralma tebranishlarida qobiq ixtiyoriy ko‘ndalang va bo‘ylama kesimi nuqtalaridagi barcha kuchlangan-deformatsiyalangan holatlarini aniqlay olish algoritimini yaratish;

deformatsiyalanuvchi muhitda joylashgan doiraviy kesik konussimon qobiqning muhit ta’siri natijasida nostatsionar buralma tebranishlari haqidagi amaliy masalalarni tashqi muhitning zichligini va boshqa fizik parametrlarini hisobga olgan holda qo‘yish va qo‘yilgan masalani yechish uchun mos hisoblash usulini yaratish;

muhitda joylashgan doiraviy konussimon qobiqning erkin uchidan berilgan burovchi moment ta’sirida vujudga keladigan kuchlanishlar ostidagi elastik konussimon qobiqning buralma tebranishlari haqidagi masalani yechish hamda kesimlardagi ko‘chishlarni, kuchlanishlarni va deformatsiyalarni aniqlash usullarini ishlab chiqish;

tashqi muhit xarakteristikalarining doiraviy kesik konussimon qobiq nuqtalaridagi ko‘chish vektori komponentalarini, kuchlanish tenzori komponentalarini hamda deformatsiya tenzori komponentalarining fazoviy koordinata va vaqtga bog‘liq qonuniyatlariga ta’sirini doiraviy konussimon qobiq misolida o‘rganish;

elastik xususiyatli muhitda joylashgan konussimon qobiqning sirtiga ta’sir qiluvchi urinma va normal kuchlanishlarni muhitning qovushoqligi hisobga olgan holda aniqlash.

Tadqiqotning obyekti etib deformatsiyalanuvchi muhit bilan ta’sirlashuvchi doiraviy elastik konussimon qobiq olingan.

Tadqiqotning predmetini turli deformatsiyalanuvchi muhitlarda joylashgan doiraviy kesik konussimon qobiqning nostatsionar buralma tebranishlarini aniqlashtirilgan va sonli o‘rganish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayoni davomida Fure va Laplas integral almashtirishlari, chekli ayirmalar usuli, elastiklik nazariyasining turli xildagi uch o‘lchovli masalalarini yechishda foydalaniladigan aniq yechimlar usuli, shuningdek boshqa bir qancha analitik tadqiqot usullari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

doiraviy kesik konussimon qobiqning deformatsiyalanuvchi tashqi muhit bilan o‘zaro ta’sirlashuvi hisobga olingan holda, dinamik yuklanishlar ta’siri ostidagi doiraviy konussimon qobiqning nostatsionar buralma tebranishlari hisobining matematik modeli takomillashtirilgan;

deformatsiyalanuvchi tashqi muhitning mexanik xossalarini hisobga olib doiraviy konussimon qobiqning nostatsionar buralma tebranishlarida uning ixtiyoriy kesimidagi nuqtalarining kuchlangan deformatsiyalangan holatini aniqlashga imkon beruvchi sonli algoritimi yaratilgan;

deformatsiyalanuvchi tashqi muhit bilan o‘zaro ta’sirlashuvchi doiraviy kesik konussimon qobiqning buralma tebranishlari amaliy masalasi qo‘yilgan hamda masalaning qo‘yilishiga mos bo‘lgan qulay yechish usuli ishlab chiqilgan;

deformatsiyalanuvchi muhitda joylashgan doiraviy konussimon qobiqning buralma tebranishlarida unga ta’sir etuvchi dinamik kuchlar va momentlar ta’sirini hisobga olgan holda doiraviy kesik konussimon qobiq kesimlarida yuzaga keluvchi ko‘chish va kuchlanishlarini hisoblash usuli ishlab chiqilgan;

gruntida joylashgan konussimon sterjenning buralma tebranishlari Kulon modelini hisobga olgan holda eksperimental tadqiqotlar asosida aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

deformatsiyalanuvchi muhitda joylashgan doiraviy kesik konussimon qobiqning deformatsiyalanuvchi muhit bilan o‘zaro nostatsionar buralma tebranish jarayonlarini hisoblashning yangi matematik modeli ishlab chiqilgan;

tashqi muhitning turli elastik parametrlarining ta’sirini hisobga olib doiraviy konussimon qobiqning buralma tebranishlarida uning ixtiyoriy kesimlaridagi nuqtalar kuchlangan-deformatsiyalangan holatlarini aniqlaydigan algoritim yaratilgan;

muhitda joylashgan doiraviy konussimon qobiqning erkin uchidan berilgan burovchi moment ta’sirida vujudga kelgan buralma tebranishlari masalasini yechish hamda kesimlardagi ko‘chish, kuchlanish va deformatsiyalarni amaliy matematik paketlar orqali hisoblashga imkon beruvchi hisob algoritimni ishlab chiqish;

geologik burg‘ulash paytida konussimon qobiqning quduq tubiga ishora qilgan uchi bo‘ylab ishqalanish natijasida hosil bo‘lgan qarshilikni hisoblash algoritimini ishlab chiqish;

hisoblash natijalariga ko‘ra buralish deformatsiya va ularning dinamik parametrlari shtanga o‘zagning buralish bikrligiga va uning uchida grunt siljishiga bog‘liq bo‘lishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Zamonaviy texnologiyalar hamda qurilishning turli dolzarb talablari asosida qo‘yilgan masalaning dissertatsiya ishida olingan yechimlari matematik fizikaning yangi usullari va sonli taqribiy yechish usullarini qo‘llash natijasidir. Deformatsiyalanuvchi muhitda joylashgan doiraviy kesik konussimon qobiqning buralma tebranishlari tenglamalari va ularning sonli natijalari ANSYS va Maple dasturi yordamida olingan yechimlar hamda boshqa avtorlarning yechimlari bilan taqqoslashlar va tashqi muhit hisobga olinmagan holda doiraviy konussimon qobiqlar uchun chiqarilgan chiziqli klassik nazariya yechimlari bilan solishtirish natijalari bilan ishonchliligi tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. *Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati* deformatsiyalanuvchi muhitda joylashgan doiraviy kesik konussimon qobiqning buralma tebranishlari tenglamalarini keltirib chiqarish usullarini yaratish va rivojlantirish, muhitning ta’sirini va burovchi momentlar ta’sirini hisobga olganda konussimon qobiqning buralma tebranishlari haqidagi yangi amaliy masalalarni yechish uchun yatarilgan usullarni turli xildagi gruntlar bilan o‘zaro ta’sirlashuvchi konussimon sterjen uchun umumlashtirish imkoniyatlari bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati deformatsiyalanuvchi muhitda joylashgan doiraviy kesik konussimon qobiqning buralma tebranishlarida xususiy turli xildagi gruntlarda joylashgan doiraviy konussimon qobiqning buralma tebranishlarida qobiq sirtidagi nuqtalarning kuchlangan-deformatsiyalangan holatlarini aniqlashga yo'naltirilgan amaliy masalalar yechimlari uchun sonli va analitik usullarni ishlab chiqish; yakuniy xulosalarning umumiy xususiyatidan kelib chiqib, ularni shunday turdagi boshqa ishlar uchun umumlashtirish; olingan yangi natijalarni materiallarning quvushoqlik, plastiklik, yoyiluvchanlik, temperatura va boshqa fizik xususiyatlarini hisobga olgan holda qo'llash mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Deformatsiyalanuvchi muhitda joylashgan doiraviy kesik konussimon qobiqning nostatsionar buralma tebranishlari bo'yicha olingan umumiy natijalari asosida:

geologik ishlarni amalga oshirishda burg'ulash paytida shtanganing buralishidan uning uchida hosil bo'ladigan qarshilik Samarqand shahar "Geofundament project" MCHJ korxonasida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi" ning 2025 yil 24 iyun 37-06/7004-sonli ma'lumotnomasi). Natijasida, doiraviy konussimon qobiqlarning buralma tebranishlarida qobiq ko'ndalang kesimi sohalarida paydo bo'ladigan eng katta urinma kuchlanishni aniqlash natijasida, konussimon qobiqda hosil bo'ladigan tebranishlarni shtanga tizimining mustahkamlik parametrlariga mos tarzda optimallashtirishga imkon yaratiladi, natijada material sarfi xarajatlari 4–5 % ga qisqaradi;

buralish deformatsiyalari va ularning dinamik parametrlaridan, shtanganing buralish bikrligidan va uning uchidagi tuproq siljishidan bog'liq ravishda aniqlangan muhit qarshiligi "O'ZGASHKLITI" loyiha qidiriv tashkilotida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi" ning 2025-yil 24-iyun 37-06/7004-sonli ma'lumotnomasi). Natijada burg'ulash shtangasining buralma tebranishlarning asosiy dinamik parametrlarini aniqlash, uning oxirida doiraviy konus o'rnatiladi, ishqalanishga ega bo'lgan gruntga tiqiladi. Statsionar bo'lmagan tebranishlarni uning sirtidan shtangaga uzatiladigan moment ta'siridagi zo'riqishlarni aniqlash masalasi ko'rib chiqiladi. Shtanga sirtidagi kuchlarni tashqi momentlardan hisoblash natijalari ichki kuchlarni aniq aniqlash imkoniyatini beradi, bu muftaning ishonchligini oshirishga shuningdek moliyaviy xarajatlarni 5-6% ga kamaytirishga imkon berdi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop bo'lib, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta ilmiy maqola, jumladan, 4 ta Respublika, 4 ta xorijiy nashrlarda (3 tasi xalqaro SCOPUS bazasida) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 112 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Dissertatsiya ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiyaning maqsadi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqot vazifalari, tadqiqot ishining ilmiy yangiliklari qisqacha keltirilgan. Dissertatsiya ishining ilmiy va amaliy ahamiyatlari, olingan asosiy natijalar bayon qilingan. Tadqiqot natijalari nashr etilgan ishlar, dissertatsiya ishining tuzilishi hamda hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Doiraviy konussimon qobiqning nostatsionar tebranishlari”** deb nomlangan birinchi bobi doiraviy konussimon qobiqlar tebranishlarizamonaviy tadqiqotlarini qisqacha sharhlashga, deformatsiyalanuvchi muhitda joylashgan doiraviy konussimon qobiq uchun chegaraviy masalalarning turlariga va deformatsiyalanuvchi muhitda joylashgan doiraviy konussimon qobiqning nostatsionar buralma tebranishlari masalasining qo'yilishiga bag'ishlangan.

Birinchi paragrafda deformatsiyalanuvchi muhitda joylashgan doiraviy konussimon qobiqlarning hamda shunga o'xshash boshqa konstruktsiya elementlarining statik, dinamik va kinematik holatlari, shunday elementlar materiallarining fizik mexanik va geometrik xususiyatlari hisobga olingan tadqiqot ishlari qarab chiqilgan. Turli muhitlarda joylashgan konussimon qobiqlarning nostatsionar tebranishlariga sharh berilgan. Bunda asosiy e'tibor deformatsiyalanuvchi muhitda joylashgan konussimon qobiqlarning nostatsionar buralma tebranishlariga yaqin bo'lgan tadqiqot ishlarini tahlil qilishga qaratilgan.

Ikkinchi paragrafda deformatsiyalanuvchi muhitda joylashgan doiraviy konussimon qobiq uchun chegaraviy masalalarning turlari keltirilgan. Dastlab doiraviy konussimon qobiqning buralma tebranishlari chegaraviy masalasining qo'yilishi berilgan bo'lsa undan so'ng doiraviy konussimon qobiqning bo'ylama radial tebranishlari va oxirida doiraviy konussimon qobiqning bo'ylama tebranishlari masalalarning qo'yilishi keltirilgan. Ushbu masalalar chegaraviy masalalar sifatida qaralib har bir tur uchun asosiy tenglamalar va chegaraviy shartlar aniq qilib berilgan.

Bobning uchinchi paragrafida deformatsiyalanuvchi muhitda joylashgan doiraviy konussimon qobiqning nostatsionar buralma tebranishlari masalasining qo'yilishi keltirilgan. Bunda deformatsiyalanuvchi muhitda joylashgan doiraviy bir jinsli izotrop elastik konussimon qobiq umumiy holda uch o'lchovli fazoda deb qaralgan. Doiraviy kesik konussimon qobiq uzunligi chegaralangan va qalinligi h ga teng deb hisoblanadi. Doiraviy kesik konussimon qobiqning kichik asosiga (r, θ, z) silindrik koordinatalar sistemasiga joylashtiramiz (1-rasm). Bunda z – o'qi kesik konussimon qobiqning geometrik markazidan o'tuvchi simmetriya o'qi bo'ylab yo'nalgan, r - o'qi radius bo'ylab yo'nalgan θ esa konussimon qobiqning



1-rasm. Deformatsiyalanuvchi muhitdagi konussimon qobiq

simmetriya o‘qi bo‘ylab burilish burchagi. Qobiqning ichki va tashqi radiuslari $r_1 = r_0 + fz$, $r_2 = r_0 + h + fz$ qonuniyat bilan o‘zgarib boradi.

Konussimon qobiq nuqtalari kuchlanishlari hamda deformatsiyalari orasidagi bog‘lanishlar Guk qonuni ko‘rinishida quyidagicha yoziladi;

$$\sigma_{ij} = \lambda \delta_{ij} \varepsilon + 2\mu \varepsilon_{ij}, \quad (i, j = r, \theta, z) \quad (1)$$

$Or\theta z$ silindrik koordinatalar sistemasida kesik konussimon qobiq nuqtalari harakatini tavsiflash uchun harakat tenglamalarini quyidagicha qabul qilamiz,

$$\sigma_{ij,j} + \rho f_i = \rho \ddot{U}_i. \quad (2)$$

Bu yerda \ddot{U}_i – doiraviy konussimon qobiq nuqtalari ko‘chish vektori. φ skalyar va $\vec{\psi}$ vektor potensial funksiyalarni quyidagicha formula yordamida kiritamiz

$$\vec{U} = \text{grad}\varphi + \text{rot}[\vec{e}_z \psi_1 + \text{rot}(\vec{e}_2 \psi_2)]. \quad (3)$$

(2) sistemaga (3) ifodani qo‘yib φ va $\vec{\psi}$ bo‘ylama va ko‘ndalang to‘lqin potenciallari orqali harakat tenglamalarini to‘lqin tenglamalari ko‘rinishida yoza olamiz;

$$\Delta \varphi = \frac{1}{a_2} \frac{\partial^2 \varphi}{\partial t^2}; \quad \Delta \vec{\psi} = \frac{1}{b^2} \frac{\partial^2 \vec{\psi}}{\partial t^2}. \quad (4)$$

Ko‘chish vektori komponentalari, kuchlanish va deformatsiya tenzori komponentalari φ va $\vec{\psi}$ potenciallar oqali ifodalanadi.

$t < 0$ paytda deformatsiyalanuvchi muhitda joylashgan doiraviy konussimon qobiq tinch holatda bo‘lgan, $t = 0$ paytdan boshlab uning chegaraviy sirtlariga dinamik kuchlar ta’sir qila boshlagan deb hisoblaymiz;

$$\sigma_{r\theta}^{(0)} - f \sigma_{z\theta}^{(0)} = \Delta_0 f_{ns_1}^{(1)}(z, t), \quad r = r_0 + fz; \quad \Delta_0 = 1 + f^2. \quad (5)$$

$t < 0$ paytda muhitda joylashgan konussimon qobiq tinch holatda bo‘lgan va shuning uchun barcha nuqtalar tinch. Shu sababli boshlang‘ich shartlar nolga teng;

$$\varphi = \psi = \frac{\partial \varphi}{\partial t} = \frac{\partial \psi}{\partial t} = 0. \quad (6)$$

(5) chegaraviy shartlardan tashqari deformatsiyalanuvchi muhit bilan doiraviy konussimon qobiq orasida quyidagi dinamik va kinematik shartlar o‘rinli

$$\sigma_{r\theta}^{(0)} - f \sigma_{z\theta}^{(0)} = \sigma_{r\theta}^{(1)} - f \sigma_{z\theta}^{(1)} + \Delta_0 f_{ns_1}^{(2)}(z, t), \quad r = r_0 + h + fz, \quad \Delta_0 = 1 + f^2; \quad (7)$$

$$U_{\theta}^{(0)}(r, z, t) \Big|_{r=r_2} = U_{\theta}^{(1)}(r, z, t) \Big|_{r=r_2}.$$

Shunday qilib deformatsiyalanuvchi muhitda joylashgan doiraviy konussimon qobiqning nostatsionar buralma tebranishlari masalasining umumiy qo‘yilishida (4) tenglamani (5) chegaraviy, (6) boshlang‘ich va (7) dinamik va kinematik kontakt shartlarda yechish kerak.

Bu paragrafda masalani umumiy yechish usuli berilgan bo‘lib undan, II bobda konussimon qobiqning o‘qqa simmetrik tebranishlari masalasini yechishda ishlatiladi.

Dissertatsiyaning “**Deformatsiyalanuvchi muhitda joylashgan doiraviy kesik konussimon qobiqning buralma tebranish tenglamalari**” deb nomlangan ikkinchi bobi deformatsiyalanuvchi muhitda joylashgan doiraviy konussimon qobiqning nostatsionar tebranishlari nazariyasini aniq yechimlar usuli bo‘yicha ishlab chiqishga bag‘ishlangan bo‘lib o‘qqa nisbatan simmetrik masala qaralgan.

Bobning birinchi paragrafida doiraviy kesik konussimon qobiqning deformatsiyalanuvchi muhitdagi buralma tebranish tenglamalari keltirib chiqarilgan. Deformatsiyalanuvchi muhitda joylashgan konussimon qobiq nuqtalari ko‘chish vektori komponentasini potensial funksiya orqali quyidagicha ifodalaymiz;

$$U_{\theta} = -\frac{d}{dr} \Psi. \quad (8)$$

Doiraviy kesik konussimon qobiqning buralma tebranish tenglamalarini keltirib chiqarish uchun tashqi ta‘sir funksiyalarini quyidagi ko‘rinishda tasvirlaymiz;

$$f_{ns_1}^{(i)}(z, t) = \int_0^{\infty} \frac{\sin kz}{-\cos kz} \left. \right\} dk \int_{(l)} \tilde{f}_{ns_1}^{(i)}(z, t) e^{pt} dp, \quad (i=1,2) \quad (9)$$

bu yerda (l) - xayoliy o‘qning o‘ng qismiga $(-i\omega_0, i\omega_0)$ tutashgan p tekislikdagi ochiq kontur. Bundan tashqari, tebranish tenglamalarini chiqarishda zarur bo‘lgan sohalar $k \leq k_0$, $|\operatorname{Im} p| \leq \omega_0$, dan tashqarida $f_{r\theta}(k, p)$ funksiyalar e‘tiborga olinmaydigan darajada kichik. Ushbu qabul qilingan tashqi ta‘sir funksiyalari uchun (4),(5),(6) masalaning yechimini (9) ko‘rinishida izlaymiz. Natijada (6) tenglamadan potensial funksiyalar orqali yozilgan oddiy differensial tenglamalar sistemasiga kelamiz. Hosil bo‘lgan tenglamalarning yechimlari quyidagicha bo‘ladi

$$\begin{aligned} \tilde{\Psi}_0 &= A_1 I_0(\beta_0 r) + A_2 K_0(\beta_0 r), \text{ agar } r_1 \leq r \leq r_2, \\ \tilde{\Psi}_1 &= B K_0(\beta_1 r), \text{ agar } r_2 \leq r < \infty. \end{aligned} \quad (10)$$

Bu yerda I_0 va K_0 Bessel funksiyalari. A_1, A_2 va B - integrallash o‘zgar-maslari;

$$\beta_0^2 = \frac{p^2}{b_0^2} + k^2, \quad \beta_1^2 = \frac{p^2}{b_1^2} + k^2, \quad b_0^2 = \mu_0 / \rho_0, \quad b_1^2 = \mu_1 / \rho_1.$$

U_{θ} ko‘chish vektori komponentasini ham (9) kabi tasvirlaymiz. Bularni ko‘chish vektorining komponentasining (8) ifodasiga qo‘yib, \tilde{U}_{θ} uchun formulani olamiz. Olingan ifodaga (10) yechimni qo‘yib quyidagiga ega bo‘lamiz;

$$\tilde{U}_{\theta 0} = -\beta_0 A_1 I_1(\beta_0 r) + \beta_0 A_2 K_1(\beta_0 r). \quad (11)$$

Doiraviy konussimon qobiqning buralma tebranish tenglamalaridagi izlanuvchi funksiyalar sifatida o‘rta sirt nuqtalarining almashtirilgan ko‘chishlarining bosh qismlarini qabul qilamiz. Bu bosh qismlar $z=0$ tekislikdan quyidagi ifoda bilan aniqlanuvchi masofada yotadi;

$$\xi = \frac{r_1}{2} \left(\chi - \frac{r_1}{r_2} \right), \quad 2 + \frac{r_1}{r_2} \leq \chi \leq 2 \frac{r_2}{r_1} + \frac{r_1}{r_2}, \quad (12)$$

bu yerda ξ o'zgarmas χ parametrغا bog'liq ravishda, qobiqning ichki, tashqi yoki o'rta sirt radiusi qiymatlarini olishi mumkin. Shundan so'ng (11) ifodadagi Bessel funksiyalarini cheksiz qatorlarga yoyib $r = \xi$ ni qo'yamiz. Cheksiz qatorlarda nolga yaqinlashish bilan cheklanamiz va $\tilde{U}_{\theta 0}^{(0)}, \tilde{U}_{\theta 0}^{(1)}$ belgilashlarni kiritib quyidagini olamiz;

$$A_2 = \xi \tilde{U}_{\theta 0}^{(1)}; A_1 = \left(\ln \frac{\beta_0 \xi}{2} - \frac{1}{2} - \psi(1) \right) \xi \tilde{U}_{\theta 0}^{(1)} - \frac{2}{\beta_0^2} \tilde{U}_{\theta 0}^{(0)}. \quad (13)$$

So'ngra ko'chish va kuchlanishlarni kiritilgan ushbu $\tilde{U}_{\theta 0}^{(0)}, \tilde{U}_{\theta 0}^{(1)}$ izlanuvchi funksiyalar orqali ifodalab chegaraviy va kontakt shartlardan quyidagi deformatsiyalanuvchi muhitda joylashgan doiraviy konussimon qobiqning buralma tebranish tenglamalarini olamiz;

$$\begin{aligned} & \left[a_{11} \frac{\partial^2}{\partial t^2} + a_{12} \frac{\partial^2}{\partial z^2} + a_{13} \frac{\partial}{\partial z} \right] U_{\theta 0}^{(0)} + \left\{ b_{11} \frac{\partial^4}{\partial t^4} + b_{12} \frac{\partial^4}{\partial t^2 \partial z^2} + b_{13} \frac{\partial^4}{\partial z^4} + b_{14} \frac{\partial^3}{\partial z \partial t^2} + \right. \\ & \left. + b_{15} \frac{\partial^3}{\partial z^3} + b_{16} \frac{\partial^2}{\partial t^2} + b_{17} \frac{\partial^2}{\partial z^2} + b_{18} \frac{\partial}{\partial z} + b_{19} \right\} U_{\theta 0}^{(1)} = [1 + f^2] \mu_0^{-1} [f_{ns_1}^{(i)}(z, t)]; \quad (14) \\ & \left[a_{21} \frac{\partial^2}{\partial t^2} + a_{22} \frac{\partial^2}{\partial z^2} + a_{23} \frac{\partial}{\partial t} + a_{24} \frac{\partial}{\partial z} + a_{25} \right] U_{\theta 0}^{(0)} + \left\{ b_{21} \frac{\partial^4}{\partial t^4} + b_{22} \frac{\partial^4}{\partial t^2 \partial z^2} + \right. \\ & \quad + b_{23} \frac{\partial^4}{\partial z^4} + b_{24} \frac{\partial^3}{\partial t^3} + b_{25} \frac{\partial^3}{\partial z \partial t^2} + b_{26} \frac{\partial^3}{\partial t \partial z^2} + b_{27} \frac{\partial^3}{\partial z^3} + b_{28} \frac{\partial^2}{\partial t^2} + \\ & \quad \left. + b_{29} \frac{\partial^2}{\partial z^2} + b_{210} \frac{\partial}{\partial t} + b_{211} \frac{\partial}{\partial z} + b_{212} \right\} U_{\theta 0}^{(1)} = [1 + f^2] \mu_0^{-1} [f_{ns_1}^{(i)}(z, t)]; \end{aligned}$$

bu yerda a_{ij}, b_{ij} koeffitsiyentlar turli formulalardan aniqlanadi,

$$a_{11} = \frac{r_1^2}{4}, \dots, b_{11} = \frac{r_1^2}{8} \left(\ln r_1 - \frac{1}{4} \right), \dots, a_{22} = -\frac{r_2^2}{4}, \dots, b_{22} = -\frac{r_2^2}{4} \left(\ln r_2 - \frac{1}{4} \right), \dots$$

Olingan tenglamalar giperbolik tipdagi hususiy xosilali differensial tenglamalardir. Bu tenglamalar deformatsiyalanuvchi muhitda joylashgan doiraviy konussimon qobiqning buralma tebranishlari jarayonini to'g'ri tavsiflash uchun muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchi paragrafda doiraviy konussimon qobiq nuqtalaridagi kuchlangan-deformatsiyalangan holatini aniqlash formulalari keltirilgan. Deformatsiyalanuvchi muhitdagi joylashgan doiraviy kesik konussimon elastik qobiqning buralma tebranishlarida kuchlangan-deformatsiyalangan holatni xarakterlovchi maydonlarning bir qancha komponentalari qo'yilgan masala θ o'qqa nisbatan simmetrik deb qo'yilganligi sababli nolga teng bo'ladi. Ulardan faqat U_θ -buralma ko'chish vektori komponentasi $\sigma_{z\theta}, \sigma_{r\theta}$ hamda nomal kuchlanishlarga noldan farqli bo'ladi;

$$U_\theta = r U_{\theta 0}^{(0)} + \frac{\xi}{r} U_{\theta 0}^{(1)} + \frac{\xi r}{2b_0^2} \ln \frac{r}{\xi} \frac{\partial^2 U_{\theta 0}^{(1)}}{\partial t^2} - \frac{\xi r}{2} \ln \frac{r}{\xi} \frac{\partial^2 U_{\theta 0}^{(1)}}{\partial z^2};$$

$$\begin{aligned}
\sigma_{r\theta}^{(0)} &= \frac{\mu_0 r^2}{4b_0^2} \frac{\partial^2 U_{\theta 0}^{(0)}}{\partial t^2} - \frac{\mu_0 r^2}{4b_0^2} \frac{\partial^2 U_{\theta 0}^{(0)}}{\partial z^2} + \frac{\xi \mu_0 r^2}{8b_0^4} \left(\ln \frac{r}{\xi} - \frac{1}{4} \right) \frac{\partial^4 U_{\theta 0}^{(1)}}{\partial t^4} - \frac{\xi \mu_0 r^2}{4b_0^4} \left(\ln \frac{r}{\xi} - \frac{1}{4} \right) \frac{\partial^4 U_{\theta 0}^{(1)}}{\partial t^2 \partial z^2} + \\
&+ \frac{\xi \mu_0 r^2}{8} \left(\ln \frac{r}{\xi} - \frac{1}{4} \right) \frac{\partial^4 U_{\theta 0}^{(1)}}{\partial z^4} + \frac{\xi \mu_0}{2b_0^2} \frac{\partial^2 U_{\theta 0}^{(1)}}{\partial t^2} - \frac{\xi \mu_0}{2} \frac{\partial^2 U_{\theta 0}^{(1)}}{\partial z^2} - \frac{2\xi \mu_0}{r^2} U_{\theta 0}^{(1)}; \quad (15) \\
\sigma_{z\theta}^{(0)} &= \mu_0 r \frac{\partial U_{\theta 0}^{(0)}}{\partial z} + \frac{\mu_0 \xi}{r} \frac{\partial U_{\theta 0}^{(1)}}{\partial z} + \frac{\mu_0 r \xi}{2b_0^2} \ln \frac{r}{\xi} \frac{\partial^3 U_{\theta 0}^{(1)}}{\partial z \partial t^2} - \frac{\mu_0 r \xi}{2} \ln \frac{r}{\xi} \frac{\partial^3 U_{\theta 0}^{(1)}}{\partial z^3}; \\
\sigma_{r\theta}^{(1)} &= 2\mu_1 U_{\theta 0}^{(0)} + \frac{\mu_1 r}{b_1} \frac{\partial U_{\theta 0}^{(0)}}{\partial t} + \frac{2\mu_1 \xi U_{\theta 0}^{(1)}}{r^2} + \frac{\mu_1 \xi}{rb_1} \frac{\partial U_{\theta 0}^{(1)}}{\partial t} + \\
&+ \frac{\xi \mu_1}{b_0^2} \ln \frac{r}{\xi} \frac{\partial^2 U_{\theta 0}^{(1)}}{\partial t^2} - \xi \mu_1 \ln \frac{r}{\xi} \frac{\partial^2 U_{\theta 0}^{(1)}}{\partial z^2} + \frac{\xi \mu_1 r}{2b_1 b_0^2} \ln \frac{r}{\xi} \frac{\partial^3 U_{\theta 0}^{(1)}}{\partial t^3} - \frac{\xi \mu_1 r}{2b_1} \ln \frac{r}{\xi} \frac{\partial^3 U_{\theta 0}^{(1)}}{\partial t \partial z^2}; \\
\sigma_{z\theta}^{(1)} &= \mu_1 r \frac{\partial U_{\theta 0}^{(0)}}{\partial z} + \frac{\mu_1 \xi}{r} \frac{\partial U_{\theta 0}^{(1)}}{\partial z} + \frac{\mu_1 r \xi}{2b_0^2} \ln \frac{r}{\xi} \frac{\partial^3 U_{\theta 0}^{(1)}}{\partial z \partial t^2} - \frac{\mu_1 r \xi}{2} \ln \frac{r}{\xi} \frac{\partial^3 U_{\theta 0}^{(1)}}{\partial z^3}.
\end{aligned}$$

Ushbu ifodalardan foydalanib konussimon qobiqning istalgan nuqtasining kuchlangan deformatsiyalangan holatini aniqlash mumkin.

Uchinchi paragrafda doiraviy konussimon qobiqning buralma tebranishlarining hususiy hollari qaralgan. Agar $\ln(r_k/\xi) = 0$, ($k=1,2$) bo'lsa yuqoridagi (14) tenglamalar sistemasi yupqa devorli qobiqning buralma tebranish tenglamalariga o'tadi. Agar (14) tenglamada $r_1/\xi = 0$ deb olinsa deformatsiyalanuvchi muhitda joylashgan doiraviy kesik konussimon sterjenning buralma tebranish tenglamalari kelib chiqadi. Ushbu holatda cheksiz qatorda nolga yaqinlashish ($n=0$) bilan cheklanib, S.P.Beridze tomonidan taklif qilingan konussimon sterjenning tanish tenglamasidan ko'ra umumiyroq bo'lgan taxminiy tenglamani olamiz.

Agar kesik konussimon qobiqning hujum burchagi nolga teng bo'lsa va tashqi muhitning ta'siri hisobga olinmasa doiraviy silindrik qobiq uchun professor X.Xudoynazarov tomonidan olingan tenglamalari kelib chiqadi.

